

**O‘ZBEK KINEMATORAFIYASIDA MALAKALI MUTAXASSIS  
KADRLARNI TAYYORLASHDA KINOOPERATOR-KINOREJISSYOR  
IQBOL MELIQUO‘ZIEVNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK MAHORATI**

**Shokirova Gulrux Batirovna**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6526344>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada ta’limda pedagogik uslub qanchalik muhimligi o‘rganilib, kinooperator-pedagog I.Meliqo‘zievning ijodiy-kasbiy fazilatlari muhokama qilinib hamda zamonaviy ta’limda metod, metodologiya qanchalik pedagogik mahoratni amaliyot bilan uzviy aloqada bo‘lishi yaxshi natijalarga olib kelishi o‘rganildi.

*Kalit so‘zlar:* innovatsiya, interfaol, milliy qadriyatlar, pedagogik mahorat, kino, video, metodik, zamonaviy, gibrid, raqamli, o‘quv texnologiya, kasbiy mahorat, kinematografiya, nazariya, malaka.

**СОВРЕМЕННОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО  
КИНООПЕРАТОРА-КИНОРЕЖИССЕРА ИКБОЛА МЕЛИКУЗИЕВА В  
ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В УЗБЕКСКОЙ  
КИНЕМАТОГРАФИИ**

*Аннотация.* В данной статье изучается важность педагогического стиля в образовании, а также кинооператор-педагог были обсуждены творческо-профессиональные качества Меликузиева и изучены методы, методология и педагогическое мастерство в современном образовании в тесной связи с практикой, что приводит к хорошим результатам.

*Ключевые слова:* инновация, интерактивность, национальные ценности, педагогическое мастерство, кино, видео, методическое, современное, гибридное, цифровое, методология обучения, профессиональное мастерство, кинематография, теория, квалификация.

**MODERN PEDAGOGICAL SKILLS OF CINEMATOGRAPHER-FILM  
DIRECTOR IKBOL MELIKUZIEV IN TRAINING QUALIFIED  
PERSONNEL IN UZBEK CINEMATOGRAPHY**

***Abstract.** This article examines the importance of pedagogical style in education, as well as cinematographer-teacher, the creative and professional qualities of Melikuziev were discussed and methods, methodology and pedagogical skills in modern education were studied in close connection with practice, which leads to good results.*

***Keywords:** innovation, interactivity, national values, pedagogical skills, cinema, video, methodical, modern, hybrid, digital, teaching methodology, professional skills, cinematography, theory, qualification.*

**KIRISH.** Bugungi kunda zamonaviy ta'lim sharoitlarda jahon andozalariga mos ravishda kinematografiya sohasining innovatsion faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning hamda mamlakatimizning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. Chunki bugungi tezkor rivojlanish davrida jamiyat uchun faol fikrlovchi, innovatsion g'oyalarni yaratuvchi hamda ularni amaliyotda samarali qo'llovchi malakali mutaxassislar zarur. Bu esa o'z navbatida, ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni, o'qitishning zamonaviy interfaol va ijodiy uslublarini joriy etish va sohaga yo'naltirish orqali ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashuvchi innovatsion rahbar va pedagog kadrlarni zarurligini keltirib chiqaradi.

1991-yilda O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, atoqli kinooperator, professor A.Ismoilovning tashabbusi bilan sobiq A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomchilik institutida kino va televidenie uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi kinoteleoperatorlik bo'limi tashkil etildi va shu yildanoq ilk talabalarni o'z bag'riga oldi. 1997-yilda esa "Kinoteleoperatorlik mahorati" kafedrasini tashkil etildi. Bugungi kunda samarali ijod qilib kelayotgan ko'plab iste'dodli kinooperatorlar uning ilk qaldirg'ochlari

bo'ldilar. Bo'lim bugungi kungacha 400 dan ortiq yuqori malakali kino va televidenie operatorlarini yetkazib berdi.

“Kinoteleoperatorlik maxorati” kafedrasida o'zbek kinematografiyasida yetuk kinooperatorlardan Abduraxim Ismoilov, Xotam Fayziev, Hamidulla Hasanov, Marat Soliev, Turdi Nodirov, Umit Artikov, Xasan Fayzievlar ushbu kafedrada faoliyat yuritib o'z amaliy bilimlaridan foydalanib talabalarga dars berdilar. Ushbu ijodkorlar o'zbek kinooperatorlik san'atiga hamda O'zDSMI institutida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda munosib hissa qo'shgan va qo'shayotgan pedagoglardir. Mana shunday buyuk mutaxassislarning izdoshlari, yosh pedagoglardan Iqbol Meliqo'ziev, A.Arziqulov, Kamola Xidirova, Otajon Dostonov, Sherzod Xusanov, Anvar Adilov, Izzat Qalandarovlar ham soha rivojiga munosib hissa qo'shuvchilardandir. Mazkur pedagoglar zamonaviy kino texnika hamda texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan, shuningdek, dunyoqarashi keng bo'lgan va ustoz-shogird an'alarini davom ettirayotgan mutaxassislardir. Кино-хаётга гўёки, чеккадан туриб қараш, одатда сезилмасдан ўтиб кетадиган жиҳатларни англаш, воқеликка чуқурроқ мушоҳадада бўлиш имкониятини яратади. Бу жараёнда соҳанинг профессионал вазифаларидан хабардор, шу билан бирга объектни ҳиссий муносабати ила таҳлил эта оладиган кинооператорнинг иштироки жуда муҳим саналади. Умуман, кинооператор фильмни илк кузатувчиси бўлиб, томошабин ва актёр ўртасидаги воситачи ҳамда техникани сўзлата оладиган сеҳргардир.

Operatorlik maktabining ta'lim jarayonidagi yutuqlari albatta, ustoz-shogird an'anasi saqlanib kelayotgani uchundir. Mana shunday dunyoqarashi keng bo'lgan va ustoz-shogird an'alarini davom ettirayotgan mutaxassislardan, yosh olim, yosh rahbar, zamonaviy pedagog kinooperator-kinorejissyor Iqbol Meliqo'zievga to'xtalib o'tmoqchiman.

I.Meliqo'ziev 1981-yilning 4- oktabrida Farg'ona viloyatining Buvayda tumanida



dunyoga keldi. Otasi Mamasodiq Meliqo'ziev o'qituvchilikdan tashqari fotografiya bilan shug'ullanib, Buvayda tumanining taniqli fotografi bo'lgan. Bu o'z navbatida I.Meliqo'zievning yoshligidanoq fotografiya jarayonlarida ishtirok etishiga va professional tajriba orttirishga sabab bo'ldi. U 2-sinfidanoq chizmachilik, rasm darslarida o'zining ilg'or tasviriy

ko'rinishlari va fotosuratlari bilan boshqalardan farq qila boshlagandi. Fotosuratlarga qiziqishi uni 1999-yili Toshkent shahriga operatorlik kasbi sirlarini o'rganishga olib keldi. Ilk bor I.Meliqo'ziev Toshkent davlat teatr va rassomchilik institutida kinooperatorlar tayyorlash bo'limining Xotam Fayziev Xolmatovichning ustaxonasiga o'qishga kirish nasib etdi.

2006-yili baklavr bosqichidan so'ng magistratura bo'limida o'qishini davom ettirdi. Bu davrdagi olgan bilimlari sohani yanada chuqurroq egallashga va ilmiy-nazariy jihatlarini anglashga turtki bo'ldi. Talaba magistrant har bir ustozining dars o'tish metodiga chuqur e'tiborini qaratgan holda kafedra ishlarida ham faol bo'ldi. Mana shu davrda I.Meliqo'ziev tomonidan o'rganilgan va kitob shakliga keltirilgan "Ko'p kamerada tasvirga olish va fotokompozitsiya asoslari" nomli qo'llanmasi bugungi kunda ham tahsil olayotgan talabalarga qo'l kelmoqda. Энг муҳими, устозлар мактаби анъанасини давом эттирган ҳолда ўзлаштирган билимларини тажрибасида қўллаб, ўз йўли, услубини топиб олди, муваффақиятларга эришди.

I.Meliqo'zievning magistraturadagi o'qish davrida rejissyor Jahongir Ahmedov bilan o'zaro hamfikir munosabatlari kino san'atidagi ijodiy jarayonlarning boshlanishiga sabab bo'ldi. 2009-yilda yaratilgan "Uylanish" nomli badiiy filmi ikki ijodkorning debyut ishiga aylandi. Film "Ko'zgu" xususiy studiyasi tomonidan loyihalashtirilib, kichik budget asosida yaratilishi lozim bo'lgan. Ijodkorlar uchun bu holat ijodiy imkoniyatlarning qisqarishiga olib kelgandi. Biroq yosh debyutantlar ushbu vaziyatdan ijobiy natijalar bilan chiqishi shart ekanligini, o'z kelajagi uchun prodyusserning ishonchini qozonish kerakligini tushinishgan. Natijada operator uy sharoitida o'z qo'llari bilan kinofloga o'xshash yoritish chirog'ini yasaydi. Ushbu chiroq fil'mning bir qancha sahnalarini yoritishda yordam berdi. O'z kasbini qadrlagan va yaratayotgan tasvirlariga befarq bo'lmagan ijodkor I.Meliqo'zievning ijoddagi ilk izlanishlari mana shunday tarzda boshlangandi.

Hozirgi kungacha operatorlik sifatida, uning barcha tomoshabinlarning qalbiga yo'l topa olgan bir qancha badiiy fil'mlarini aytishimiz mumkin: "Uylanish", "Omad", "Qora ko'z", "Tundan tonggacha", "Yigit yig'lamasin" "So'nggi-qo'ng'iroq" "Oling-quda, bering-quda", "Dardi bedavo", "Omadli yigitlar", "Mening akam bo'ydoq", "Xizmat doriasidan tashqarida", "Tundan tonggacha-2", "Tilim qursin", "Janob xot-dogchi", "Ana xolos", "Dadam bilmasin", "Qaysar oshiklar", "Onam bilmasin", "Kunlardan bir kun", "Tilim qursin-2", "Baxt ortidan", rejissyorlik ishlaridan- "Mening do'stim-jin", "Yigitali", "Ishdagi ishq", "Kuyov jo'ra" va "Ketaman didimmi ketaman" kabi badiiy filmlarni tasvirga olgan. I.Meliqo'zievning ishlash uslubini o'rganganimizda, u eng avvalo fil'mda rejissyorning qo'ygan vazifasiga suyanibgina qolmay, nafaqat operatorlik ishiga balki aktyorlarning ijrosi dramaturgiyaga to'g'ri xizmat qilishiga ham jiddiy e'tibor qaratadi.





I.Meliqo‘ziev hujjatli fil’mlaridagi hayotiylikni, obrazlar xarakterini to‘g‘ri yoritilganini ko‘rib, yildan yilga uning maxorati oshganini bildiradi. “San’atda o‘z o‘rnini topgan inson”, “Noviy mir krasok», “Hayotda o‘z o‘rnini topgan inson”, “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti”, “Jahon tillari universiteti”, “Farg‘ona davlat universiteti”, “Farg‘ona politexnika universiteti”, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, Davlat testr markazi, test sinovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida o‘zbek va rus tillarida”, “Marg‘ilon hunarmandchilik markazi (o‘zbek-ingliz tilida), “O‘zbekiston dostonchilik san’ati” (o‘zbek-ingliz tilida), “O‘zbekiston bog‘dorchiligi” (o‘zbek-ingliz tilida), “O‘zbekiston maqomi” “Dorbozlik” (o‘zbek-ingliz tilida), “O‘zbekiston palov madaniyati va an‘analari” (o‘zbek-ingliz tilida), “O‘zbekistondagi nikoh to‘yi” (o‘zbek-ingliz tilida), “Boysun madaniyati” (o‘zbek-ingliz tilida), “Kulolchilik” (o‘zbek-ingliz tilida), “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti”, “O‘zbekistondagi nomoddiy madaniy meros”, “Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin”, “WELCOME TO SAMARKAND”, “WELCOME TO KHIVA” hujjatli fil’mlari shular jumlasidandir.

I.Meliqo‘ziyev операторлик санъатининг ўзига хослиги ҳақида гап кетар экан, аввало, унинг “Asosan operator birinchi navbatda dunyoviy fikrlovchi, tafakkuri yuqori darajada, sohadagi besh hil chiroq qoyish qoidasinin mukammal bilmog‘i hamda tasvirga olish maydonchsiga borganda kim ekanligigni unutib qo‘ymasligi lozimdir!..” деган сўзлари ёдимизга тушади. Оператор кадр кўйишда кўпинча портрет жанрига мурожаат этгани боис, унга бу услуб кўп

бора қўл келган. Бунда қаҳрамоннинг кўзлари аниқ ажратиб кўрсатилади, юзнинг қолган қисми эса сояроққа олинади. Яъни, кадрнинг бутун композицияси айнан кўзларнинг йирик планда кўрсатилишига асосланади. Шу билан бирга унинг операторлик асарларида ички драматизм, ҳаяжонли динамика, мусиқа билан ҳамоҳанг ривожланадиган кадрларнинг композицион темпи, тугалланган бадий шакл, маъноли сукутлар, лирика, майин ва самара берувчи ёруғлик (эффект), табиат ва актёрнинг мутаносиб ҳарорати, мураккаб ракурслар, кенг фазовий ҳаво, ўткир бадий дид энг муҳими, драматургиянинг экранда таъсирли ифодаланишига ўралган фикр акс этиб туради<sup>1</sup>.

Masalan, badiiy filmlar operatori, hujjatli filmlar operatori, o'quv va ilmiy-ommabop filmlar operatorlarining ijodiy faoliyatlaridagi muhim farqlari va o'xshashliklari, ish yuritish yo'nalishlarining nozik tomonlari yoritib beriladi. Rejissyorlar, rassomlar, bastakorlar va kinoteleoperatorlar bilan o'zaro hamkorlikda, bir-birini tushunib ijod qilishlari uchun operatorlik san'atining xususiyatlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlariga intilinadi.

I.Meliko'ziev kinooperatorlik sohasini mukammal egallash yo'lida ijodkor shaxsdir, biroq uning uchun bu ijoddagi to'la erkinlik emasdi. U mana shu erkinlikni izlay rejissuraga qo'l urdi. Endi u o'z asarining avtori, g'oya talqini egasiga aylanib, ilk marotaba rejissyor sifatida 2013-yil "Mening do'stim jin" fil'mini tasvirga oldi. Ijodkor shaxslar odatda boshqalardan nimasi bilandir farq qiladi. Tarixda ba'zi ijodkorlarni aqldan ozgan kishilar ham deyishgan. Erkin ijodkor o'zining olamida yoki hayoliy fantazisiyada real dunyodan-da lazzatliroq yashay olishi mumkin. 2014-yilda "Yigitali", 2015-yilda "Ishdagi ishq" va "Kuyovjo'ra" kabi badiiy filmlarida komedik obrazlari orqali hayotimizdagi achchiq haqiqatlarni ochib berishga harakat qilingan.

---

<sup>1</sup> Melikuziev I. Cinematographer's ability in the creation of graphic image in Uzbek historical films // International Journal of Advanced Science and Technology. -2020.-№29(5). -B.1554-1567.

2015-yilda “Mening yurtim” va “Sevimli” telekenallarining kino taqdimotida “Yilning eng yaxshi kinooperatori” nominatsiyasi sohibi bo‘ldi. U maxoratli rejissyor Jahongir Ahmedov bilan birga el suygan san’atkorlar Hosiyat Xusanova, Saida Rametova, Matyoqub Matjonov, Muhammadiso Abulxairov, Shohida Uzoqovova va h.z.lar bilan birgalikda bir qancha halqimiz sevib tomosha qiladigan ijod namunalari yaratgan.



“O‘zbekkino” Milliy agentligi buyurmasiga binoan “Hujjatli va xronikal fil’mlar kinostudiyasi” DUK va O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti bilan hamkorlikda “Ijod studiyasi” tomonidan “Muhammad Yusuf: Ulug‘imsan Vatanim! Badiiy-publitsistik hujjatli fil’mi postanovkachi rejissyor Iqbol Meliqo‘ziev tomonidan suratga olindi. Mazkur fil’m O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda taniqli ijodkorlarning intervyulari va xotiranomalar o‘rin olgan. Shuningdek, shoirning shartli obrazi orqali ijodiy kayfiyati, iztiroblari, yozish jarayonlari manzarasi yoritildi. Muhammad Yusuf tug‘ilib o‘sgan qishloq, bolaligi, 1970-1990 yillardagi



adiblar anjumanlari, gazeta va jurnallarda chop etilgan she'rlari, o'zining ishtirokidagi video xronikal tasvirlardan foydalanildi.

I.Meliqo'ziev bir vaqtning o'zida pedagogik faoliyatini olib borar va tasvirga olish maydonchasida olgan amaliy bilimni nazariy ilimga o'girib talabalarga yetkazardi. 2011-yildan boshlab O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Ovoz rejissyorligi va kinoteleoperatorlik maxorati" kafedrasining mudiri etib tayinlanishi uning ijodiy vaqtini qisqartirdi. Kafedra yumushlari tugamas edi. Biroq bu serg'ayrat ijodkor shunday vaziyatda ham aniq reja asosida ishlarni taqsimlar ekan, barcha ishlarga ulgurardi. U o'zida pedagogik ishlariga, shu jumladan, mustaqil ijodda hamkuch, g'ayrat va iroda topa oldi.

I.Meliqo'ziev O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Kineteleoperatorlik" va "San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash" ta'lim yo'nalishlaridagi mutaxassislarni tayyorlamoqda. "Kinooperatorlik



maxorati", "Dizayn grafikasi asoslari", "Multimedia loyihalash" kabi fanlardan bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida dars berib kelmoqda. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy va

yangi o'quv usullarida olib boradi. Talabalarning erkin fikrlash, mustaqil ijodiy ishlari yaratishiga alohida e'tibor beradi.

I.Meliqo'ziev inson sifatida bir oz jiddiy ammo har bir talabaga hazilomuz tarzda "ustoz" deb murojaat qilishi bejiz emas albatta. Sababi, pedagogik maxorat har bir talabani o'rganish, axborot almashish hamda hamdard bo'lish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Pedagog va talabalar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi samarali ro'y berishini uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagog talabalarning

eng yaqin maslahatchisi, yo'lboshchisi va rahbariga aylanadi. I.Meliqo'ziev o'z iste'dodi, mahorati bilan keng jamoatchilik orasida hurmat-e'tibor qozongan serqirra ijodkor va malakali pedagogdir. Mazkur fanlardan ishchi dastur, ma'ruza matnlari, test savollari, amaliy mashg'ulot ishlanmalari, video darslarini ishlab chiqib, o'quv jarayonini uslubiy jihatdan boyitishga munosib hissa qo'shdi.

I.Meliqo'ziev pedagog sifatida o'zining metod va metodologiyasiga egadir. U aynan hozirgi zamonaviy dars o'tish metod talablariga javob bera oladigan darajada mashg'ulot olib boradi. Nazariy va amaliy dars mashg'ulotini gibridd (nazariya, amaliyot, video) tarzida, talabalarga ham tushunarli ham qiziqarli qilib o'tadi.

Talabalarga bugungi kinoteleoperator raqamli tasvir yaratilishidagi o'ziga xos bo'lgan me'yorlarni bilishi va to'g'ri ishlata olishi lozimligini uqtirib kelmoqda. Sababi, kun sayin mukammal ildiz otayotgan



raqamli texnologiya kino ijodkorlarining "raqamli yondoshuvini", yangicha izlanishlarini kutmoqdadir. U o'zining amaliyotda duch kelgan va kelayotgan kamchiliklari, muammolari talabalarga nazariy bilim berish jarayonida o'z yechimini topmoqda. Amaliy malaka nazariy bilimlarini mustahkamlanishini ta'minlanmoqda.

I.Meliqo'ziev sohani rivojlantirish maqsadida "Ko'p kameralarda tasvirga olish uslubi", "Fotokompozitsiya" kabi o'quv qo'llanmalarni, shuningdek, professor A.Ismoilov bilan hammualliflikda "Kinofotoprotsessi i aksesuari", "Kinoteleoperatorlik maxorati" (badiiy fotografiyaning shakllanishi va taraqqiyot jarayonlari) kabi darsliklarni chop etgan. 60 dan ortiq maqolalar muallifi. Shu kunga qadar bir qancha kurs ishlari, malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilmoqda.

2015-yil noyabr oyida Koreya Respublikasining Seul shahrida ICHKAP tashkiloti (Osiyo va Tinch okeani mintaqasida nomoddiy madaniy meros bo'yicha xalqaro axborot va hamkorlik markazi, Koreya Respublikasi YUNESKOning 2-toifali markazi) nomoddiy madaniy merosni hujjatlashtirish sohasida operator mutaxassislarni malakalarini oshirish bo'yicha mashg'ulotlarda ishtirok etib o'z malakasini oshirib qaytdi.

I.Meliqo'ziev va kafedra professor-o'qituvchilarining tashabbusi bilan kafedra ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkillashtirib boriladi. Jumladan, 2019-yilning 21-28 sentabr sanalarida institutda "Ozarbayjon kinosi kunlari", 24-oktabr kuni esa O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Turk dunyosi hujjatli fil'mlar festivali, 2020-yilning 3-mart kuni O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutida kinorejissyor, prodyusser, "Aditim" kompaniyasi bosh direktori—Georgiy Soldatov va kompaniyaning bosh mutaxassisi Nikolay Pigaryov ishtirokida kafedra talabalari uchun mahorat darslari tashkil etildi.

Kafedrada kadrlar tayyorlashda Jahonning rivojlangan davlatlari oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-iyuldagi "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ3880-sonli Qarorining 3-4-bandlarining ijrosini ta'minlash maqsadida O'zDSMI qoshida Butunrossiya davlat kinematografiya institutining "Ijodiy markazi" tashkil qilindi. Bugungi kunda Butunrossiya davlat kinematografiya institutiga "Kino va televidenie"ning oliy kurslariga hamda assistentura-stajirovkaga professor-o'qituvchi va talabalarni yuborish buyicha ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday ishlarning natijasi o'laroq "Kinoteleoperatorlik" bo'limi 4-kurs talabasi Shermuxamedov Risqibek Butunrossiya davlat kinematografiya institutining 11-Xalqaro yozgi lageriga yuborildi. U nufuzli diplomni qo'lga kiritdi.

2019-yilda "San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash" ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi Karimov Bahodir, Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan

“DINFAC-2019” Xalqaro kinofestivalida ishtirok etib nufuzli sertifikatga ega bo‘ldi va h.k.

Bugungi kunda I.Meliqo‘zievning ta‘lim jarayoniga qo‘shayotgan hissasi yetishib chiqayotgan yoshlarga kattadan-katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. Uning pedagogik faoliyatida erishayotgan yutuqlari ustozlar yaratgan o‘zbek kinooperatorlik maktabining rivojlanishga yordam berayotgan bo‘lsa, kinofil’mlar yaratishdagi ijodiy faoliyati bilan yangi raqamli kino davrining mutaxassislaridan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka “mahallabay” yetkazishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 7-son bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida Yunusobod tumanidagi “YANGI O‘ZBEKISTON – YANGICHA DUNYOQARASH” g‘oyasi ostida tadbir uyushtirildi. O‘tkazilgan madaniy-ma‘rifiy, targ‘ibot tadbirlarida aholi, birinchi navbatda, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar, uyushmagan yoshlar, ehtiyojmand xotin-qizlar, keksa avlod vakillarini jalb etilgan. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini mudiri professor v.b Meliqo‘ziev Iqbol Mamasodiqovichlar faol ishtirok etdi.



Joriy yilning 12-noyabr kuni Yunusobod tumanida «Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash» g‘oyasi ostida 2 ta targ‘ibot tadbirlari va 1 ta Beshta muxim tashabbus doirasida tadbirlar o‘tkazildi. Targ‘ibotchilar guruhi a‘zolari, san’atkorlar, teatr aktyorlari qatnashdi. Xususan, Toshkent moliya institutining majlislar zalida "Minor", "Matonat", "Qashqar", "Buyuk Turon" mahallalari) hamda soat 15:00da 70-umumta‘lim maktabining majlislar zalida ("Mirzo Ulug‘bek", "Shayx Shivli", "Firdavsiy", "Yangitarnov" mahallalari) tashkillashtirildi.



2021-yil 13-fevral kuni Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahridagi Mirzo Tursunzoda nomidagi Tojikiston davlat madaniyat va san'at institutining "Elektron ommaviy axborot vositalari sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlashda kredit ta'lim tizimida o'qitish" Xalqaro amaliy loyihasi asosida, "Rejissyorlik" va "Teleoperatorlik" mutaxassisliklarini tayyorlash maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida dotsentri v.b. Kamola Xidirova bilan birgalikda Xalqaro ekspert sifatida "Rejissyorlik" va "Kinoteleoperatorlik" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashdagi metod va metodologiyasi bo'yicha amaliy trening o'tkazdi.

2021-yilning 27-30 iyun kunlari Belarus Respublikasida "Art-Yekspo" Xalqaro mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari o'rtasida o'tkazilgan forumda "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida "Kino-teleoperatorlik" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi Habibullaev Solmon hamda "San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi Inoyatov Jahongirlar ishtirok etib faxrli o'rinlardan biriga egalik qilib maxsus diplomlar bilan taqdirlangan.



Hozirda "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida mudiri professor v.b., kinooperator-kinorejissyor Iqbol Meliqo'ziev kinematografiya "Fan, ta'lim-ishlab chiqarish" integratsiyasini rivojlantirish orqali kafedrada iqtidorli talabalar bilan "UPRAGE" loyihasi doirasida zamonaviy vizual ishlab chiqarish asarda yangi O'zbekiston zamon qahramonlarining milliy va umum insoniy qadriyatlarini poetik qarashlarini yaratish tajribalari xarakterlash orqali iqtidorli yosh qahramonlarni tanlab olish hamda kino, televidenie, ishlab chiqarish korxonalarini va kafedralar integratsiyasini rivojlantirish maqsadida badiiy, hujjatli fil'mlar, animatsion mul'tfil'mlar, ko'p qismli seriallar va tele-ko'rsatuvlar orqali aks ettirishda talabalar Xalqaro kino festtvallarda qatnashish hamda ishlab

chiqarish korxonalarini bilan kurs ishi loyixalarini tijoratlashtirish bo'yicha tajribalarini oshirib "UPRAGE" yangi loyixasini yo'l xaritalarini rejasini tasdiqlab ustoz-shogird an'anasiga tayanib yangi ijodiy ishlar hamda g'oyalar bilan Iqbol Meliqo'ziev kurs ishi loyixalarini amalga oshirmoqda.

### *Adabiyotlar*

1. Meliqo'ziev I.M. Kino-teleoperatorlik mahorati (badiiy fotografiya shakllanish va taraqqiyot jarayonlari) Darslik, Toshkent 2018 y.
2. Ismailov M.N, Meliqo'ziev I.M. "Metodika opredelenie vremeni i uslovie eksponirovaniya s pomoshyu fotoeksponometra" -O'quv qo'llanma. T.2007-y
3. Meliqo'ziev I.M "Ko'p kameralarda tasvirga olish uslubi"- O'quv qo'llanma. T.2009-y
4. Ismailov A.I. Meliqo'ziev I.M "Texnicheskie i tvorcheskie vozmojnosti videokameri"- Darslik . T.2009
5. Fayziev X. Operatorskoe iskusstvo v sovremennyx o'zbekskix kino i videofil'max i voprosi podgotovki professionalnix spetsialistov. "San'at ta'limi". Yilnoma to'plam. T., "TDSI", 2010.
6. "OROM" kafedra YouTube <https://youtu.be/ygJze-Njwoc> maxsus kanal va telegramm bot kanallari <https://t.me/OROMK/6787> Toshkent-2022.